



# NYC davlat maktablari nima yangiliklar

Shiko këtë dokument në shqip

عرض هذه الوثيقة باللغة العربية

এই নথিটি বাংলা ভাষায় দেখুন

查看本文件的简体中文版本

查看本文件的繁體字中文版本

Consultez ce document en français

Gade dokiman sa a an Kreyòl ayisyen

이 문서를 한국어로 보십시오

Документ на русском языке

Consulte este documento en español

Переглянути цей документ українською мовою

اس دستاویز کو اردو میں ملاحظہ کریں

Ushbu hujjatni ichida ko'ring O'zbek

[schools.nyc.gov/MessageForFamilies](https://schools.nyc.gov/MessageForFamilies)

## 2026-yil may

Ushbu Family Update (oilalar uchun yangiliklar) 2026-27 o'quv yili taqvimi, Summer Rising dasturi takliflari, qabulga oid yangiliklar, O'qituvchilarga minnatdorchilik izhor qilish haftasi, Iqlim harakati kuni hamda ota-onalar va o'qituvchilar konferensiyalari haqida ma'lumot taqdim etadi.

### Mundarija

- [2026–27 o'quv yili taqvimi](#)
- [Summer Rising dasturi takliflari](#)
- [Muhim qabul sanalari](#)
- [O'qituvchilarga minnatdorchilik izhor qilish haftasi](#)
- [Iqlim harakati kuni](#)
- [Ota-onalar va o'qituvchilar konferensiyalari](#)

## 2026– 27 o'quv yili uchun Nyu-York shahar davlat maktablari (NYCPS) taqvimi

2026–27 o'quv yili taqvimi chiqarildi! Keyingi o'quv yilining birinchi o'qish kuni – **seshanba, 10-sentabr!** Muhim sanalarni ko'rish va chop etiladigan fayllarni yuklab olish uchun kiring: [schools.nyc.gov/Calendar](https://schools.nyc.gov/Calendar). Yana quyidagilarga e'tibor qarating:

Murakkab ob-havo sharoiti yoki boshqa favqulodda holatlar tufayli maktab binolari yopilgan kunlarda, NYC Davlat maktablari o'quv jarayonini masofaviy shaklda davom ettirishi mumkin. Mavjud tajribaga asosan, NYCPS maktablari bayramlar dam olish kunlariga to'g'ri kelsa, maktablar hafta o'rtasida yopilmaydi.

2026-27 o'quv yilida quyidagi bayramlar dam olish kunlariga to'g'ri keladi va maktab bayramlari sifatida nishonlanmaydi:

- Rosh Hashanah (shanba–yakshanba, 12–13-sentabr, 2026-y.)
- Diwali (yakshanba, 8-noyabr, 2026-y.)
- Xitoy yangi yili (yakshanba, 7-fevral, 2027-y.)

Taqvim qanday tuzilishi borasida savollaringiz bormi? Batafsil ma'lumot: [schools.nyc.gov/CalendarExplainer!](https://schools.nyc.gov/CalendarExplainer)

## Summer Rising dasturi takliflari

Agar siz Summer Rising dasturiga ariza topshirgan va taklif olgan bo'lsangiz, farzandingizning joyini band qilish uchun taklifni **seshanba, 5-maygacha** qabul qiling! Oilalar dasturga avtomatik ravishda qabul qilinmaydi. Farzandingizga yuborilgan taklifni qabul qilish yoki rad etish uchun [MySchools.nyc](https://www.schools.nyc.gov) tizimiga kiring.

## Muhim qabul sanalari

Iqtidorlilar va iste'dodlilar (G&T) dasturidagi 1-4 sinflarga ariza topshirish 8-mayda yakuniga yetadi.

G&T dasturidagi 1-4 sinflarga arizangizni **2026-yil, 8-may, juma** kunigacha topshiring. G&T dasturlari 1-4 sinflardagi muvofiq keluvchi o'quvchilarga tezlashtirilgan ta'limni taklif qiladi. Mos keluvchi o'quvchilarning oilalari elektron pochta yoki pochta orqali ariza topshirishga taklifnoma olgan bo'lishi kerak. G&T dasturiga muvofiq talablari va qabul haqida batafsil ma'lumot: [schools.nyc.gov/GT](https://schools.nyc.gov/GT).

## 3-K va Pre-K natijalari

Agar 2026-yil kuzi uchun 3-K va Pre-K sinflariga 28-fevralgacha ariza topshirgan bo'lsangiz, farzandingizning natijalarini **seshanba, 12-may** (Pre-K) yoki **seshanba, 19-may** (3-K) sanalarida olasiz. Taklifni qabul qilish uchun [MySchools.nyc](https://www.schools.nyc.gov) hisobiga kiring va farzandingiz qo'shilgan har qanday kutish ro'yxatlari bilan tanishing. Takliflar qanday berilishi haqida batafsil ma'lumot: [schools.nyc.gov/3K](https://schools.nyc.gov/3K) va [schools.nyc.gov/Pre-K](https://schools.nyc.gov/Pre-K).

## O'qituvchilarga minnatdorchilik izhor qilish haftasi

**2026-yil, 4–8-may kunlari** haftaligida farzandingizning o'qituvchilariga minnatdorchilik izhor qiling! O'qituvchilar farzandlarimizga sinf ichida va undan tashqarida to'liq salohiyatimizni namoyish eta olishlari uchun o'zlarini xavfsiz his qilishga, qo'llab-quvvatlash va ilhomlantirishga yordam berishadi.

4–8-may kunlari farzandingizning hayotida ijobiy o'zgarishlar qilayotgan o'qituvchilarga tashakkur izhor qilish uchun vaqt ajrating. Mehmon sifatida [doeallstars.schools.nyc](https://www.doeallstars.schools.nyc) sahifasida tizimga kiring va qo'llab-quvvatlov xatingizni yo'llash uchun o'zingizga yoqqan NYCPS pedagogining ismi va familiyasini kiriting. O'qituvchining kayfiyatini ko'tarish juda oson! Biz yana o'quvchilar va oilalarni #ThankATeacherNYC heshtegi yordamida shahrimizdagi o'qituvchilarga ijtimoiy tarmoqlarda dil izhorlarini aytishga targ'ib qilamiz.

## Iqlim harakati kuni

2025–26 o'quv yili uchun eng oxirgi NYCPS iqlim harakati kuni **chorshanba, 20-may** kuniga to'g'ri keladi! Har bir iqlim harakati kunida, NYC davlat maktablari jamoalari iqlimga oid bilim berish va barqarorlik amaliyotlarining muhimligini ta'kidlaydigan tadbirlar bilan mashg'ul bo'lishadi. May oyi uchun "Suv" mavzu sifatida tanlandi va maktablar suv ekotizimlari, suvni asrash va shahrimizda ko'payib borayotgan yog'ingarchilik va kuchli shamollarga moslashishga diqqat qaratishga targ'ib qilinadi. Batafsil ma'lumot olish uchun [schools.nyc.gov/ClimateAction](https://schools.nyc.gov/ClimateAction) sahifasiga kiring.

## Ota-onalar va o'qituvchilar konferensiyalari

Bu yilgi yakuniy ota-onalar va o'qituvchilar konferensiyalariga (PTC) tayyor turing! Odatda ota-onalar va o'qituvchilar konferensiyalari masofaviy shaklda o'tkaziladi, ammo ayrim maktablarda jonli ishtirok talab etiladigan konferensiyalar o'tkaziladi. Konferensiyalarda yozma va og'zaki tarjima xizmatlari ham taklif etiladi – agar sizga shunday xizmatlar lozim bo'lsa yoki konferensiyada shaxsan ishtirok etmoqchi bo'lsangiz, farzandingizning maktabiga xabar bering. Batafsil ma'lumot olish uchun [schools.nyc.gov/PTC](https://schools.nyc.gov/PTC) sahifasiga kiring.

- **Chorshanba, 6-may:** O'rta sinflar maktablari va D75 maktablari uchun kechki PTC
- **Payshanba, 7-may:** Boshlang'ich ta'lim maktablari va Pre-K markazlari uchun kechki PTC
- **Chorshanba, 20-may:** Oliy maktablar, K–12 va 6–12 maktablar uchun kechki PTC'lar

Maktabda o'tadigan tadbir sanalarini aniqlash va konferensiyani rejalashtirish uchun farzandingizning o'qituvchilari bilan gaplashing.